

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> October 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2022

Online: 19<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

*Lymnaeidae, Fasciola hepatica, Fasciola gigantica , klozantel, rolenol,albendazol*

## FASSIOLYOZ KELIB CHIQISHI VA UNI OLDINI OLİSH (adabiyotlar tahlili)

Daminov Jo'rabek Nodir o'g'li<sup>1</sup>, To'rabyeva Diyora Ulug'bek qizi<sup>2</sup>

Madaminov Umirbek Maqsud o'g'li<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti

<sup>2,3</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7232934>

### ABSTRACT

Bu gelmintoz kasallik barcha: yovvoyi va uy hayvonlarida , qolaversa, insonlar orasida ham keng tarqalgan .Fassiolyoz bilan kasallangan hayvonlar mahsuldarligi kamayib ketishi oqibatida qishloq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar keltiradi.Masalan, qoramollarning sut berish mahsuldarligi 20-50 % ga, qo'ylarning jun mahsuldarligi 10-30 % ga kamayadi.Ushbu maqolada Fassiolyozni oldini olish va uni kelib chiqish sabablari va uni davolash haqida so'z boradi.


### Mavzuning dolzarbliji.

Hozirgi vaqtida trematodalar sinfiga 5000 dan ortiq tur kiradi. Ularning deyarli hammasi odam va qishloq xo'jaligi hayvonlarining turli to'qima va organlarida parazitlik qiladi.Aсосан kasallik jarayonida jigar jarohatlanganligi tufayli hayvonlarda moddalar almashinuvি buziladi. Kasallikning o'tkir shakli hayvonlar o'limiga sabab bo'ladi.Fassiolyoz O'zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi.Jumladan, sug'oriladigan tog' hududlari va suv havzalarida keng tarqalgan,Respublikamizda asosan ikki turi uchraydi : oddiy jigar qurti -Fasciola hepatica va gigant jigar qurti - Fasciola gigantica Fasciola hepatica Xorazm viloyati va Qorag'alpog'iston Respublikasida uchramaydi, ammo Fasciola gigantica bundan mustasno.Professor N.V.Demidov ma'lumotlariga ko'ra MDX mamlakatlarida har yili chorva mollarining fassiolyoz kasalligidan nobud bo'lishi oqibatida 1500-2500 tonna go'sht mahsulotlari va 1 000000 tonna sut mahsulotlari yo'qotiladi.

O'zbekistonda esa mahsuldar mollarning 35.9-65.5 % qismi fassiolyoz bilan kasallangan

### Kasallikning qo'zg'atuvchisi.

Fasciola hepatica - bargsimon, tanasi uzunligi 20-30 mm va eni 10- mm atrofida bo'lib , oldingi uchki qismi konussimon toraygan va ikkita so'rg'ichli bo'ladi.Birinchi va ikkinchi so'rg'ichlar orasida jinsiy teshigi, tanasining orqa uchida ayirish organi teshigi joylashgan bo'ladi.fasciola hepatica ya'ni jigar qurti asosan qoramol, qo'y, echki , ot hamda insonlar o't suyuqligi yo'llarida parazitlik qiladi.O't va o't yo'lidagi yemirilgan hujayralarning parchalanish mahsulotlari bilan oziqlanadi.Jigar qurti keltirib chiqaradigan kasallik fassiolyoz deyiladi. Fasciola gigantica tanasi cho'zilgan va uzunligi 75 mm atrofida bo'ladi. Fasciola tuxumlari oval shaklli bo'lib , rangi sarg'ish va o'lchami 0.120-0.149 x 0.070-0.090 mm atrofida bo'ladi



### Kasallikning qo'zg'atuvchisi rivojlanishi.


Jigar qurti biogelmint hisoblanib, rivojlanishida 2 ta xo'jayin ishtirok etadi.Oraliq xo'jayin vazifasini esa Lymnaeidae oilasiga mansub chuchuk suv molluskalari bajaradi.Qo'y , echki, ot, tuya va ba'zan odamlar unga asosiy xo'jayin vazifasini o'taydi.Hozirgi kunda jigar qurtiga oraliq xo'jayin vazifasini bajaradigan 18 turga kiruvchi chuchuk suv molluskalari aniqlangan.Jigar qurti nihoyatda serpusht bo'lib,suvga tushgan tuxumlaridan qulay sharoitda 20-25 °C haroratda 15-20 kunda mirasidiylar chiqadi , ularning usti mayda kiprikchalar bilan qoplangan bo'lib , harakatchan lichinka hisoblanadi.Molluska organizmida ular sporosistalarga, rediyga, serkariylarga aylanadi.Mirasidiylar 2-3 kun ichida oraliq xo'jayinni topib, xartumi orqali molluska chig'anog'ini kesadi va ichiga kirib oladi.Natijada lichinkalar molluska jigariga boradi va kiprikli ustki qavatini tashlab sporosistaga aylanadi.Sporosista ichidagi embrion hujayralari otalanmasdan rediyalarni hosil qiladi.Bitta sporosistada 10-15 talab rediyalar yetiladi va ular yorib chiqib molluskalar tanasida 2-2.5 oy davomida yashaydi.Rediyalarda og'iz , shoxlanmagan to'g'ri ichak , ichida esa tuxum hujayralari bo'ladi.Rediyalar partogenetik yo'l bilan ko'payib serkariylar hosil qiladi.Serkariylarda og'iz va qorin so'rg'ichlari mavjud.ayiruv organlar sistemasi anchagina rivojlangan va o'rta ichagi ikki shoxchaga bo'lingan bo'ladi.Serkariylar dumi orqali suzadi va

ular oziqlanmaydi.Ular 24-48 soat mobaynida suzib yumaloqlanadi , dumi tushib ketadi va adoleskariy -lichinkalik davriga o'tadi.adoleskariylar o'tlarga yopishgan holda tiriklikni uzoq saqlab turadi.Buni oqibatida , o't va suv orqali asosiy xo'jayin organizmiga o'tadi .Ichki muhitda esa qobig'i erib , faol holatga qaytadi.Ichakda sistasi erigach ichak devoriga yopishib kapilyarlar orqali jigar o't yo'llariga boradi.U yerda jinsiy voyaga yetib yana shu holatlar takrorlanadi.

Mirasidiydan serkariylar hosil bo'lguncha 60-90 kun kerak bo'ladi.bitta mirasidiydan 600-800 tagacha serkariylar hosil bo'ladi.Adoleskariylar esa asosiy xo'jayinda 2-2.5 oyda jinsiy voyaga yetadi , 3-5 yildan 10 yilgacha asosiy xo'jayin organizmida saqlanib qoladi.

### Kasallik belgilari.

Kasallik belgilari organizmdagi jigar qurti soniga uzviy bog'liq hisoblanadi.Fasciola gigantica oqibatida hosil bo'ladigan kasalliklar asosan o'tkir holatda kechib, hayvonning o'limiga ham olib keladi.Jinsiy voyaga yetgan fasciolalar qon bilan oziqlanadi, natijada invaziyaning surunkali shaklini keltirib chiqaradi.Bu vaqtida kasallik aniq xarakterli bo'lmaydi.Qo'ylar tana vaznini yo'qotadi va junlari hurpayib , shish paydo bo'lishi , ishtaha yo'qolishi kuzatiladi. Qoramollarda esa o'sish jarayoni sekinlashadi, sigirlarning sut miqdori keskin kamayadi.





## Davolash.

Fassioloyoz bilan kasallangan hayvonlar quyidagicha antigelmintiksiz-lantiriladi:

- ✓ Albendazol yirik va mayda shoxli hayvonlarga 1 ml/ 10 kg miqdorda
- ✓ Alben 1 tabletkadan 50 kg tirik og'irlilikka
- ✓ Klozalben 2g/ 10 kg miqdorda
- ✓ Fenbendazol qo'yylarga 0.2 g/ 10 kg miqdorda, qoramollarga 0.35 g/10 kg miqdorda
- ✓ Rolenol qo'yylarga 1 ml/ 10 kg miqdorda, qoramollarga 1 ml/ 20 kg miqdorda teri ostiga yoki muskul orasiga yuboriladi.

## Kasallik oldini olish.

Fassioloyoz oldini olish uchun albatta veterinariya-sanitariya tadbirleri o'tkazilishi lozim.

- ✓ Fassioloyoz bilan zararlangan hayvonlar uchraydigan xo'jaliklarda suv havzalarida- oraliq xo'jayini bor yo'qligi tekshiriladi.
  - ✓ Hayvonlar har ikki oy davomida yangi boqiladigan joyga o'tkazilishi talab etiladi
  - ✓ Nosog'lom hududlardan yig'ilgan pichanlar 3- 6 oydan so'ng hayvonlarga berilishi lozim bo'ladi.
  - ✓ Nosog'lom xo'jaliklarda molluskalar biotoplarini yo'qotish uchun choratadbirlar o'tkaziladi
  - ✓ Molluska biotoplarini yo'qotish uchun 5.5- dixlorsalisilanilidlardan foydalaniлади.
- Melioratsiya yo'li bilan zaxkash joylar quriladi, keraksiz bo'lgan suv havzalari, ko'lmaklar va tashlandiq artisan suvlari yo'qotiladi.

## References:

- 1."Parazitologiya terminlarining izohli lug'ati" J.A.Azimov ,E.B.Shakarboyev, D.T.Isakova Toshkent - 2007
- 2."Umumiy parazitologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar"- o'quv qo'llanma , G.Abduraxmonova , S.Dadayev – Toshkent " Go to print"- 2020
- 3."O'zbekistonda mollyuskalar orqali rivojlanadigan chorvamollari parazitlari va ularningoldini olish choralar."- oliv o'quv yurtlari uchun qo'llanma ,S.Dadayev – Toshkent-2008
- 4."Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных" К.Абуладзе - 1990
- 5."Odamlar va hayvonlarni parazitlar bilan zararlanishini tekshirish usullari"- oliv o'quv yurtlari magistratura uchun o'quv qo'llanma, S.Dadayev –Guliston-2017
- 6."Паразитология и инвазионные болезни животных" М.Ш.Акбаева -2000
- 7."Veterinariya asoslari" J.Shopo'latov – 1989
- 8."O'zbekistonda tuyoqli hayvonlar o'pkasi va jigarida parazitlik qiluvchi gelmintlar hamda ularni oldini olish choralar" S.Dadayev Toshkent-2009